

8-SINF. O'ZBEKISTON TARIXI CHSB-1.

IV variant.

Sinf _____
F.I.SH. _____

Sana: _____
O'quvchining

1. Quyidagi qaysi javobda Chingizzon boshchiligidagi mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borgan tarixiy siymo nomi berilgan? (Bilish–2,5 ball)

- A) Jaloliddin Manguberdi B) Madaminbek C) Dukchi eshon D) Abu Muslim

2. Quyidagi qaysi shaxs Chingizxonning elchisi hisoblanadi? (Bilish–2,5 ball)

- A) Aloq no‘yon B) Najmiddin Kubro
C) Suketu Cherbi D) Ibn Kafroj Bug‘ro

3. Jaloliddin Manguberdiga xiyonat qilgan ukasi kim edi? (Bilish–2,5 ball)

- A) G‘iyosiddin Pirshoh B) Alovuddin Kaykubod
C) Xalifa Nosir D) Sayfiddin Ig‘roq

4. Xorazmshohlar davlatida qal’alarga hujum qilishda foydalanilgan qurollarni belgilang. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. Sadoq; 2. Katapulta; 3. Zambarak; 4. Dabbobat; 5. Mataris; 6. Kejim.
A) 1,3,5 B) 2,4,5 C) 2,3,6 D) 1,3,6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)

Nº	Mulohaza uchun	Ha	Yo‘q
1	Chig‘atoyxon Qoraqurumga oziq-ovqat yuborishni cheklab qo‘ygach, oziq-ovqat mahsulotlarining assosiy qismini Xitoydan oladigan dashtlik xalqlar qiyin ahvolda qolgan		
2	O‘qtoy va Chig‘atoylar birin-ketin vafot etishgach, butun mo‘g‘ul ulusida taxt uchun kurashlar boshlanib ketgan		
3	Olg‘uxon hokimiyatini mustahkamlash uchun shu paytda Chig‘atoy ulusini boshqarayotgan Eragana Xotunga uylangan		
4	Tarmashirinxon chig‘atoy xonlari orasida birinchi bo‘lib o‘z qarorgohini Movarounnahrga, Qashqadaryo vohasiga ko‘chirgan		

- A) yo‘q, yo‘q, ha, ha
C) yo‘q, ha, ha, yo‘q

- B) ha, yo‘q, yo‘q, ha
D) ha, ha, yo‘q, yo‘q

6. Quyidagi qaysi hududlar Jaloliddin Manguberdiga tobeligini izhor etib, umumiylashman – mo‘g‘ullarga qarshi kurash istagini bildirishgan? (Qo‘llash – 4,5 ball)

- 1) *Kirmon*; 2) *Fors*; 3) *Shatra*; 4) *Tiflis*; 5) *Isfahon*; 6) *Tabariston*.
 A) 1,3,5 B) 2,3,4 C) 1,2,5 D) 3,4,6

7. Quyidagi daryo va to‘g‘onlarni ularga berilgan ta’riflar asosida moslashtiring. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. *Marv shahrini suv bilan ta’minlovchi to‘g‘on*;
 2. *Balxob daryosidagi to‘g‘on*;
 3. *Samarqand shahrini suv bilan ta’minlaydigan yagona to‘g‘on*;
 4. *Qozog‘istonning Akto ‘be viloyatidan o‘tuvchi daryo*.
 a) *Sultonband*; b) *Bandi amir*; c) *Qo‘rg‘oshin nova*; d) *Irg‘iz*.
 A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
 B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d
 C) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b
 D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

8. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)


Nº	Mulohaza uchun	Ha	Yo‘q
1	Ov-shikorni doimiy mashg‘ulotga aylantirgan ko‘chmanchi mo‘g‘ul xonlari uchun atrofi dasht va to‘qaylardan iborat Toshkent shahri ov qilishga qulay bo‘lgan		
2	Kebekxon mo‘g‘ullarning o‘troq Movarounnahr aholisi bilan yaqinlashuvini istaganligi uchun ham qarorgohini Qashqadaryo vohasiga ko‘chirgan		
3	Qashqadaryo vohasi Esan Buqa davrida Kebekxonga mulk sifatida berilganligi sababidan ham Kebekxon o‘z qarorgohini keyinchalik Qashqadaryo vohasiga ko‘chirgan		
4	Kebekxon tomonidan o‘tkazilgan ma’muriy islohot mahalliy hokimliklar va bekliklarga to‘liq barham bergen		

- A) ha, yo‘q, ha, yo‘q
 B) ha, yo‘q, yo‘q, ha
 C) yo‘q, ha, ha, yo‘q
 D) yo‘q, ha, yo‘q, ha

9. Jaloliddin Manguberdiga maktub yo‘llagan (a) va Jaloliddin Manguberdi maktub yozgan (b) kishilar ko‘rsatilgan javobni belgilang. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. *Shamsuddin Eltutmish*; 2. *Nosir*; 3. *Sharofulmulk*; 4. *G‘iyosiddin Pirshoh*.
 A) a-1, b-2 B) a-3, b-4 C) a-2, b-3 D) a-1, b-4

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping. (Mulohaza –5,5 ball)



- a) Chingizxon tomonidan qatl etilgan;
b) Turkiyaning Silvan shahrida uning taxminiy qabri topilgan;
c) Chingizxonning Movaraunnahrga yurishi davrida Xo'jand hokimi bo'lgan;
d) so'fiylar kiyimida Shomga borgan va oradan ancha vaqt o'tgach, yurtiga qaytgan;
e) 17 marotaba mo'g'ullarga qarshi jang qilib, ularning 14 tasida g'olib bo'lgan;
f) mo'g'ullarga qarshi kurashda jasorat ko'rsatgan.
- A) I-b, e; II-c, d; III-f
B) I-a, e; II-b, f; III-c
C) I-b, f; II-d, e; III-c
D) I-a, b; II-c, d; III-f